

Nurtayev Urinboy Nishonbekovich

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi Pedagogika fanlari nomzodi professor

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

oltinoyadhamova@gmail.com

TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA KREATIV YONDASHUV MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqolada tasviriy san’at darslarida kreativ yondashuvning o‘rnini va uning samarali qo‘llanilishi tahlil etiladi. Darslarda kreativ yondashuv, o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularni o‘z salohiyatini amalga oshirishga undash, san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada, tasviriy san’at darslarida kreativ metodlarning samarali usullari, ularni amaliyotda qanday tatbiq etish mumkinligi va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun eng samarali yondashuvarlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san’at, kreativ yondashuv, pedagogika, ijodiy salohiyat, metodika, san’at ta’limi, o‘quv jarayoni, innovatsiyalar.

ISSUES OF CREATIVE APPROACH IN FINE ART LESSONS

Abstract: This article analyzes the role of creative approach and its effective use in visual arts classes. A creative approach in lessons plays an important role in developing students' creative thinking, encouraging them to realize their potential, and increasing their interest in art. This article talks about effective methods of creative methods in visual arts classes, how they can be implemented in practice, and the most effective approaches for developing students' creative potential.

Key words: Fine art, creative approach, pedagogy, creative potential, methodology, art education, educational process, innovations.

ВОПРОСЫ ТВОРЧЕСКОГО ПОДХОДА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация: В данной статье анализируется роль творческого подхода и его эффективное использование на занятиях изобразительным искусством. Творческий подход на уроках играет важную роль в развитии творческого мышления учащихся, стимулировании их реализации своего потенциала, повышении интереса к искусству. В данной статье говорится об эффективных методах творческих методов на занятиях изобразительным искусством, о том, как их можно реализовать на практике, а также о наиболее эффективных подходах для развития творческого потенциала учащихся.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, творческий подход, педагогика, творческий потенциал, методика, художественное образование, образовательный процесс, инновации.

KIRISH

Tasviriy san'at ta'limi nafaqat o'quvchilarga texnik ko'nikmalarini o'rgatish, balki ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish va estetik qadr-qimmatni anglashda ham muhim rol o'ynaydi. O'quv jarayonida kreativ yondashuvni qo'llash, o'quvchilarga san'atga bo'lган qiziqishini oshirish, ular o'zlarini san'at orqali ifoda etishga undash uchun juda samarali vositadir. Kreativ yondashuv, an'anaviy metodlar bilan bir qatorda, o'quvchilarning o'z fikrlarini erkin va yangi shakllarda namoyish etishiga imkon yaratadi. Mazkur maqolada tasviriy san'at darslarida kreativ yondashuvning o'rni va uning o'quv jarayonidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Kreativ yondashuv – bu o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. O'quvchilarga yangi g'oyalalar yaratishga imkon berish, ularning o'ziga xos fikr va nuqtai nazarlarini rivojlantirish, san'atni faqat texnik ko'nikmalar orqali emas, balki shaxsiy izlanishlar va ijodiy qarashlar orqali o'rganishga yordam beradi. Kreativ yondashuvning eng muhim jihatlaridan biri – o'quvchilarga yangi fikrlar yaratish uchun imkoniyat berish, ularni tajriba qilishga va ijodiy faoliyatda erkin bo'lishga rag'batlantirishdir.

Erkin ijodiy topshiriqlar berish Erkin ijodiy topshiriqlar o'quvchilarga o'z xohishlariga ko'ra san'at asarlarini yaratish imkonini beradi. Bu, o'quvchilarning ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, mavzu tanlashda erkinlik berish, o'quvchilarning shaxsiy g'oyalalarini amalga oshirishga imkon yaratadi. Vizual fikrlash va brainstorming usullari O'quvchilarga fikrlarni vizual tarzda ifodalash imkonini berish, ularning ijodiy fikrlashini faollashtiradi. Brainstorming (g'oyalarni yig'ish) usuli orqali o'quvchilar yangi g'oyalarni tezda yaratish va ularni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini topadilar. Bu usul tasviriy san'at darslarida g'oyalarni tez rivojlantirish va o'quvchilarni faol ishtirot etishga undaydi. San'at asarlarini tahlil qilish Mashhur rassomlarning asarlarini tahlil qilish, o'quvchilarga san'atning turli uslublarini va yondashuvlarini tushunishga yordam beradi. Bu metod nafaqat san'atni o'rganish, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilar asarlarni tahlil qilib, o'z asarlarida yangi uslublarni va texnikalarni qo'llashni boshlaydilar. Interaktiv darslar va guruqli ishslash Interaktiv darslar va guruqli ishlar o'quvchilarga birgalikda ijodiy g'oyalalar yaratishga imkon beradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning o'zaro fikr almashish va bir-birlarining ijodiy ishlarini baholash orqali yangi yondashuvlarni kashf etishlariga yordam beradi. Eksperiment va yangi materiallar bilan ishslash Yangi materiallar va texnikalar bilan ishslash o'quvchilarga san'atda tajriba qilish imkonini beradi. Bu, o'quvchilarni yangi usullarni o'rganishga va san'atda innovatsion g'oyalarni sinab ko'rishga rag'batlantiradi. Masalan, an'anaviy bo'lman materiallar yoki raqamlı texnologiyalar yordamida ijod qilish o'quvchilarning ijodiy salohiyatini kengaytiradi. San'at terapiyasi va emotsiyonal ifoda San'at terapiyasi metodlari orqali o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini tasviriy san'at orqali ifodalashlari mumkin. Bu usul, ayniqsa, o'quvchilarning ichki dunyosini ochishga yordam beradi va ularni tasviriy san'at orqali o'z hissiyorlarini ifodalashga undaydi. Interdisipliner yondashuv Tasviriy san'atni boshqa fanlar bilan bog'lash, o'quvchilarga san'atni yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Masalan, tarix, adabiyot yoki fanlar bilan bog'langan mavzularni san'atga tatbiq etish, o'quvchilarning ijodiy yondashuvlarini yanada boyitadi. Kreativ yondashuvni tasviriy san'at darslarida qo'llashda ba'zi qiyinchiliklar mavjud. O'quvchilarning turli yoshdag'i va shaxsiy xususiyatlaridagi farqlar, metodlarni tanlashda muhim omil bo'lishi mumkin. Shuningdek, o'qituvchining pedagogik tajribasi va kreativ metodlarni qo'llashdagi malakasi ham samarali natijalar olishda katta rol o'ynaydi. Darsda ijodiy yondashuvni tatbiq etishda vaqtini samarali taqsimlash va dars jarayonini boshqarish ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Kreativ yondashuvni tasviriy san'at darslarida qo'llashda bir qator amaliyotdagi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bu qiyinchiliklar pedagogik jarayonda metodlarni samarali tatbiq etish va o'quvchilarning kreativ salohiyatini to'liq ochib berishda ba'zi cheklolvar yaratishi mumkin. Quyida kreativ yondashuvning amaliyotdagi ba'zi asosiy qiyinchiliklari keltirilgan: Kreativ yondashuvni amalga oshirishda o'quvchilarning individual farqlari (qobiliyat, yoshi, psixologik holati) katta ahamiyatga ega. Har bir o'quvchi san'atni o'ziga xos tarzda qabul qiladi va turli usullarni o'zlashtirishga turlicha yondashadi. Bunday farqlarni hisobga olmaslik, o'quvchilarning

kreativ potentsialini to‘liq ochishiga to‘sinqinlik qilishi mumkin. Masalan, ba'zi o‘quvchilar erkin ijodiy topshiriqlarda yaxshi natijalar ko‘rsatishsa, boshqalari bunday jarayonda noqulaylik his qilishlari mumkin. Kreativ metodlarni darsda qo‘llash uchun qo‘sishimcha vaqt va materiallar kerak bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarni yangi metodlar bilan tanishtirish, ularni o‘rgatish va amaliyotda tatbiq etish ko‘proq vaqt talab qiladi. Shu bilan birga, san’at darslari uchun zarur bo‘lgan materiallar (ranglar, asboblar, texnologiyalar) cheklangan bo‘lishi mumkin, bu esa kreativ yondashuvni to‘liq amalgalashirishni qiyinlashtiradi. Ba'zan resurslar yetarli bo‘lmaganda, o‘quvchilar uchun eksperimentlar yoki yangi materiallar bilan ishslash imkoniyatlari cheklanishi mumkin. Kreativ yondashuvni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchining pedagogik malakasi va tajribasi muhim ahamiyatga ega. Yangi metodlarni sinovdan o‘tkazishda o‘qituvchining o‘quvchilarning ehtiyojlarini tushunishi, har bir o‘quvchining imkoniyatlarini aniqlash va individual yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Biroq, ba'zi o‘qituvchilar kreativ metodlarni amaliyotga tatbiq etishda tajribaga ega bo‘lmasligi mumkin, bu esa yondashuvni samarali qo‘llashni qiyinlashtiradi. Kreativ yondashuvlarning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun o‘quvchilarning san'atga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi muhimdir. Ba'zi o‘quvchilar an'anaviy metodlarga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin, va ularni kreativ usullarga jalb qilish murakkab bo‘lishi mumkin. Motivatsiyasiz o‘quvchilarga yangi yondashuvlarni o‘rgatish qiyin bo‘lib qoladi. Shuning uchun o‘qituvchi kreativ yondashuvlarni o‘quvchilar uchun qiziqarli va jozibador qilishga harakat qilishi lozim. Kreativ yondashuvlar ba'zida aniq natijalar bermasligi mumkin, chunki ijodiy jarayonlar doimo noaniq va dinamikdir. O‘quvchilarning asarlari turli xil usullar va uslublarda yaratiladi, shuning uchun o‘qituvchining o‘quvchilarni qanday baholash yoki ular uchun qanday me'yirlarni belgilashni aniqlash ba'zan qiyin bo‘lishi mumkin. Bunday noaniqlik o‘quvchilarga o‘z ishlarini yaratishda erkinlik berish bilan birga, ularning ijodiy jarayonlariga mos keluvchi baholash tizimlarini yaratishni talab qiladi. Kreativ yondashuvlarni an'anaviy pedagogik metodlar bilan birgalikda qo‘llashda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, o‘qituvchining dars rejasida an'anaviy metodlarga asoslangan vazifalar mavjud bo‘lsa, kreativ metodlarni qo‘llash ularga qarshi chiqishi yoki ular bilan bir-birini to‘ldirishi kerak. Ba'zida o‘qituvchilar o‘rtasida yaratish va baholash bo‘yicha farqlar sababli, kreativ yondashuvlarni samarali integratsiya qilishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ba'zi o‘qituvchilar va ota-onalar san’at ta’limiga konservativ yondashuvni afzal ko‘rishlari mumkin. Ular an'anaviy metodlarga ko‘proq e’tibor berishadi va yangi yondashuvlarni jiddiy qabul qilmasliklari mumkin. Bu esa san’at darslarida kreativ metodlarning samarali qo‘llanishiga to‘sinq bo‘lishi mumkin. Bunday konservativ yondashuvlar o‘quvchilarning yangi g‘oyalarni yaratishdagi ishtiyoqini kamaytirishi mumkin. San’atga bo‘lgan konservativ yondashuvlar – bu san’at ta’limida an'anaviy, o’zlashtirilgan va o’zgarmas metodlarga asoslangan yondashuvlar bo‘lib, ular san’atni ko‘proq klassik, stilistik jihatdan belgilangan va tarixiy uslublar bilan cheklaydi. Bunday yondashuvda san’at asarlarining shakli, uslubi va mazmuni ma'lum bir qoidalar va an'analarga amal qilishi kerak. Conservativ yondashuvning ba'zi asosiy xususiyatlari va unga qarshi turgan omillarni quyida keltiramiz: Konservativ yondashuvda san’at ta’limida klassik metodlar va an'analarga e’tibor qaratiladi. Bu metodlar o‘quvchilarga eski uslublarni o‘rgatish, rang va shakllar bilan ishslash, kompozitsiya va perspektivani o‘rganishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Rassomlar tomonidan ishlatilgan klassik usullar va uslublar saqlanadi, va yangi eksperimentlar, yangi texnikalar, shakllar va uslublar kiritishga nisbatan e’tibor qaratilmaydi. Konservativ yondashuvda san’at asarlarini yaratishda aniq belgilangan qoidalar mavjud: ranglarning to‘g‘ri qo‘llanilishi, shakllarning klassik qoidalarga mosligi, materiallar va texnikalar to‘g‘ri ishlatilishi kerak. Bu yondashuvda yangi, eksperimental yoki original g‘oyalalar ko‘p hollarda rad etiladi, chunki ular an'anaviy standartlarga to‘g‘ri kelmaydi. Konservativ yondashuvda san’atni tushunishda o‘quvchilar ko‘pincha faqat ilgari mavjud bo‘lgan rassomlar, tarixiy shaxslar yoki an'anaviy uslublarga e’tibor berishadi. Bunday yondashuvda yosh rassomlar va o‘quvchilar o‘z g‘oyalarni erkin ifodalashga imkon olishmaydi, chunki ular “yo‘l qo‘yilmaydigan” uslublarga asoslangan me'yorlarga amal qilishlari kerak. Bu o‘quvchilarning ijodiy yondashuvlarini cheklaydi va ularning san'ati faqat biror bir klassik uslubga mos kelishi

kerak degan noto‘g‘ri fikrni keltirib chiqaradi. Konservativ yondashuvda san'atda yangi g‘oyalar va innovatsiyalar ko‘pincha qabul qilinmaydi. Bunday yondashuvda san'atni tarixiy kontekstda va avvalgi rassomlar yaratgan asarlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish kerak, deb hisoblanadi. Bu san'atdagi yangi texnikalar, shakllar, uslublar va zamonaviy g‘oyalarni kiritishga qarshi bo‘lishi mumkin. Masalan, zamonaviy san'at va abstrakt tasvirlarni an'anaviy konservativ pedagogik metodlar bilan birlashtirish o‘qituvchilar va ota-onalar tomonidan qabul qilinmasligi mumkin. Konservativ yondashuvda san'atning texnik jihatlariga katta e'tibor beriladi: kompozitsiya, ranglar, chizish texnikalari, va shakllar haqida aniq qoidalar mavjud. Bunday yondashuvda o‘quvchilarga san'at asarini qanday texnik tarzda yaratish, shakl va ranglarni qanday moslashtirish o‘rgatiladi. Biroq, ijodiy fikrlash va individual yondashuvga erkinlik berilmaydi. San'at faqat texnik jihatdan mukammal bo‘lishi kerak degan fikrning kuchayishi o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini o‘chirishga olib kelishi mumkin. Konservativ yondashuvda san'at asarlari faqat an'anaviy estetik qoidalar asosida baholanadi. Bu esa san'atni faqat ma'lum bir shakl va rang tizimiga kiritadi. Yangi uslublar, yondashuvlar va texnikalar kiritishga qarshilik ko‘rsatiladi. Estetika hamda shaklga bo‘lgan bu qat‘iy yondashuv, o‘quvchilarning yangi, innovatsion va erkin g‘oyalar yaratishlariga to‘sinq bo‘lishi mumkin. Kreativlik va erkinlikning kamayishi Konservativ yondashuvlar ko‘pincha san'atni nazariy va texnik jihatdan belgilangan chegaralarga kiritadi. Bu o‘quvchilarning ijodiy potentsialini cheklaydi, chunki ular faqat oldindan belgilangan me'yorlarga amal qilishlari kerak. O‘quvchilar yangi usullarni kashf qilishdan ko‘ra, faqat tasviriy san'atning klassik asarlarini qayta yaratishga ko‘proq e'tibor qaratishadi. Pedagogik jihatdan konservativ yondashuvlar o‘quvchilarning o‘zlarini san'atda erkin ifodalashiga xalaqit beradi. Ular o‘zlar o‘rgangan klassik uslublarni takrorlashda qoladilar va yangi g‘oyalarni, shakllarni yoki texnikalarni o‘rganishdan voz kechishadi. Bu yondashuv san'atga bo‘lgan qiziqishni kamaytirishi, shuningdek, ijodiy ishlarda o‘quvchilarning shaxsiy o‘sishiga to‘sinqlik qilishi mumkin. San'atga konservativ yondashuvlar, ayniqsa, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda ba‘zi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunday yondashuv san'atni faqat an'anaviy va klassik shakllar bilan cheklaydi, yangi g‘oyalar, texnikalar va uslublarning joriy etilishiga qarshi chiqadi. Shuning uchun, san'at darslarida erkin fikrlash va ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun konservativ yondashuvlardan chetlashish, o‘quvchilarga yangi va innovatsion yondashuvlarni o‘rganishga imkon yaratish zarur. Bu, o‘z navbatida, san'atga bo‘lgan qiziqishni va uni yaratishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi. Kreativ yondashuvlarni ta‘lim jarayoniga kiritishda samarali tahlil va baholash tizimining yo‘qligi ham qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Kreativ ishlarni baholashda an'anaviy usullarni qo‘llash noqulay bo‘lishi mumkin, chunki ijodiy ishlarni ko‘pincha subyektiv bo‘ladi. Yangi va innovatsion yondashuvlarni qanday baholash, o‘quvchilarni qanday rag‘batlantirish va baholash tizimini qanday shakllantirish muammosi mavjud. Kreativ yondashuvni tasviriy san'at darslarida muvaffaqiyatlari qo‘llash o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi, ammo amaliyatda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. O‘quvchilarning individual xususiyatlari, resurslar cheklolari, o‘qituvchining tajribasi, motivatsiya darajasi va kreativ jarayonlarning noaniqligi kabi omillar kreativ metodlarni tatbiq etishda to‘silarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramay, bu qiyinchiliklarga qarshi turib, san'at ta‘limida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash mumkin, agar o‘qituvchilar samarali pedagogik strategiyalarni ishlab chiqib, o‘quvchilarning ehtiyojlarini to‘g‘ri tahlil etishsa. Kreativ yondashuvni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi darslarni muntazam ravishda rejalashtirib, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishi zarur. Har bir o‘quvchining ijodiy qobiliyati turlicha bo‘lishi mumkin, shuning uchun yondashuvlarni moslashtirish va ularning kreativ imkoniyatlarini ochishga yordam berish muhimdir. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlar darsda innovatsion va ijodiy muhitni yaratishda yordam beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki Tasviriy san’at darslarida kreativ yondashuv o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, san’atga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning o‘zini ifoda etishiga yordam beradi. Kreativ metodlardan foydalanish, o‘quvchilarning yangi fikrlar yaratish, tajriba qilish va san’atga bo‘lgan individual yondashuvlarini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu maqolada taqdim etilgan metodlar, pedagogik amaliyotda kreativ yondashuvning samarali qo‘llanishiga yordam beradi va o‘quvchilarning san’atga bo‘lgan munosabatini shakllantirishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekistonda tasviriy san’at pedagogikasining rivojlanishi: Nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: San’at nashriyoti, 2019.
2. Ijodiy metodlar va pedagogika: Qizilbayev T. 2018.
3. San’at va ta’lim: Turli pedagogik metodlar va ularning amaliyoti. Nurmuhammedov A., 2020.
4. Rassomlik va kreativ metodlar. Davlatova D., 2021.
5. Yangi pedagogik metodlar va texnikalar: Innovatsiyalar va san’at. Ismailov B., 2022.